

## O'RTA OSIYONING GEOGRAFIK O'RNI VA UNING MINTAQAVIY AHAMIYATI

**Uktamov Urayimjon Shavkatjon o'g'li**

*Andijon davlat pedagogika instituti "Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi*

**Mo'ydinjonova Mubina Dilmurodjon qizi**

**Sheraliyeva Munisa Abduraxim qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabalari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'rta Osiyoning geografik o'rni, tabiiy chegaralari hamda Yevrosiyo qit'asidagi strategik joylashuvi tahlil qilinadi. Mintaqaning qadimiy savdo yo'llari chorrahasida joylashgani, tabiiy resurslarga boyligi va geosiyosiy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, O'rta Osiyoning iqtisodiy, transport-logistika va madaniy aloqalardagi o'rni ham baholanadi.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается географическое положение Центральной Азии, её природные границы и стратегическое значение на Евразийском континенте. Анализируется роль региона как перекрёстка древних торговых путей, его богатство природными ресурсами и геополитическое значение. Особое внимание уделяется региональной роли Центральной Азии в экономических, транспортно-логистических и культурных связях.*

**Annotation:** *This article examines the geographical location of Central Asia, its natural boundaries, and its strategic position within the Eurasian continent. The study highlights the region's role as a crossroads of ancient trade routes, its rich natural resources, and its geopolitical significance. In addition, the importance of Central Asia in regional economic, transport-logistical, and cultural interactions is analyzed.*

**Kalit so'zlar :** *O'rta Osiyo , Nishopur , Safedko'h , Mug'orajar, G'arbiy Sibir , Do'ng'iztov, Boroxoro.*

### KIRISH

O'rta Osiyo — Yevrosiyo materigining o'rta qismida, g'arbda Kaspiy dengizi qirg'oqlaridan sharqda Xitoy chegarasigacha, shimolida G'arbiy Sibir tekisligidan, janubida Nishopur, Safedko'h va Hindukush tog'larigacha cho'zilgan yirik tabiiy geografik o'lka. U materik ichkarisida, Atlantika okeanidan 4 ming km, Shimoliy Muz okeanidan 2,5 ming km, Tinch okeanidan 5,5 ming km va Hind okeanidan 1 ming km ga yaqin masofada joylashgan, suvlari okeanlarga chiqib keta olmaydigan berk havzadan iborat. O'rta Osiyo hududi o'rta asrlarda, Turon arab manbalarida Movarounnahr, 19-asrning 2-yarmi va 20-asr boshlarida (1924—25 yillarda o'tkazilgan milliy davlat chegaralanishigacha) Turkiston deb atalgan, keyinchalik O'rta Osiyo deb ataladigan bo'ldi.

Asosiy qism : O'lkaning g'arbiy chegarasi Elburs tog'ining 54° 15' shq.u. qismidan boshlanib, Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'i orqali Mang'ishloq qo'ltig'igacha, undan Ustyurtning shimoli-g'arbiy chinki bo'ylab, Do'ng'iztov, Chog'ray platosi, va Mug'ojar

tog'lari sharqiy etagi orqali o'tib, 58° shq.u. va 48° shahrik.ga borgandan keyin shimoliga buriladi va Jetig'ara shahri gacha, undan keyin Qo'stanay shahri orqali Ayritovgacha boradi. So'ngra Qozog'iston past tog'larining shimoliy chegarasi bo'ylab sharq va janubiy sharq tomon davom etib, Qozog'iston — XXR chegarasiga tutashadi. Sharqiy chegara esa Savr, Sharqiy Jung'ariya, Jung'ariya, Boroxoro, Iren — Xabirga, Qarat, Holiqtog' tizmalari suvayirg'ichlari, Xontangri tog' tuguni, Qaqshal, Otboshi tizmalari suvayirg'ichlari orqali o'tib, Farg'ona tizmasiga kelib tutashadi, so'ngra Olay tizmasining sharqiy chekkasi va Sariqo'l tizmasi suvayirg'ichi bo'ylab o'tib, Hindukush tog'lariga tutashadi. Bu yerda, Muztog'dan boshlab g'arbgga tomon janubiy chegara boshlanadi va Hindukush, Safedko'h, Nishopur tizmalari suvayirg'ichlari bo'ylab o'tib, Elburs tog'i orqali Kaspiy dengizining janubi-sharqiy chekka sohiliga kelib tutashadi. O'rta Osiyo yirik geosistema sifatida (maydoni 3300 ming km<sup>2</sup>chamasida) Qozog'istonning kattagina qismini, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, qisman Xitoy hududlari hamda Afg'oniston va Eronning Amudaryo havzasiga qarashli qismini o'z ichiga oladi. O'rta Osiyoning qo'shni tabiiy o'lkalaridan farqlantirib turuvchi o'ziga xos bir qancha belgilari mavjud. Bular: 1) Yevrosiyo materigida tutgan o'rnining o'ziga xosligi, ya'ni materikning ichkarisida, okeanlardan uzoqdan joylashganligi; 2) o'lkaning berk havzadan iborat ekanligi, ya'ni bu yerda shakllangan asosiy oqimning tashqi dengiz, okeanlarga chiqib keta olmasligi va o'lkaning eroziya bazisi hisoblangan Kaspiy, Orol, Balxash, Issiqko'l kabi ichki havzalarga quyilishi; 3) Yer yuzasining o'ziga xosligi, ya'ni o'lkaning shim., shimoli-g'arbiy katta qismi tekisliklardan, sharqiy va janubiy qismi tog'liklardan iboratligi; 4) tabiiy sharoitida ichki tafovutlarning kattaligi, ya'ni tabiatining barcha komponentlari o'lkaning turli qismlarida keskin farq qilishi; 5) o'ziga xos gorizontal tabiiy zonalarining mavjudligi va ularga mos balandlik mintaqalarining rivojlanganligidir. Bu o'lkada o'simliksiz ko'chma qumlar, o'tish qiyin bo'lgan chakalakzor o'rmonlar, ekinzor va bog'lardan iborat vohalarni ko'rish mumkin; 6) ekologik sharoitiga ko'ra ham berk o'lka, bu tabiatdan foydalanishda ehtiyotkorlikni talab etadi

O'rta Osiyo hududining 4/5 qismi tekisliklardan iborat, qolgan qismini tog'liklar tashkil qiladi. Tekisliklarning Qozog'iston past tog'laridan g'arb va janubi-g'arbdagi qismi Turon tekisligi deb ataladi. U tektonik jihatdan mezozoy va kaynozoy yotqiziqlari bilan to'lgan katta botiqqa to'g'ri keladi. Uning ostki qismi tektonik harakatlar natijasida kuchli o'zgargan paleozoy jinslari qatlamlaridan tuzilgan qattiq fundamentdan iborat. Bu fundament yer yuzasidan turli chuqurliklarda yotadi, ayrim joylari past ko'rinishida yer yuzasiga chiqib qolgan. O'rta Osiyo tekisliklari sharq va janubiy tomonlarida Tarbag'atoy, Tyanshan, Hisor Olay, Pomir, Hindukush, Safedko'h, Nishopur tog'lari bilan o'ralgan. Ularning ko'pchiligi baland tog'lar bo'lib, 6 ming m dan baland bo'lgan 136 ta cho'qqisi bor. Ayrim cho'qqilarning bal. esa 7—7,5 ming m ga yetadi. O'rta Osiyo tog'larining xususiyati shundan iboratki, tizmalar va ularni ajratib turgan daryo vodiylari va botiqlar ko'pincha kengliklar bo'ylab cho'zilgan. Ular bilan birgalikda ko'ndalang tog' tizmalaridan iborat orografik tugunlar (yoki markadlar)

mavjud. Bunday tog' tugunlari Tyanshan, Pomir va Hisor— Olay tog'larida 16 ta bo'lib, ular muzlik markazlaridir. O'rta Osiyo geografik o'rnining eng muhim jihatlaridan biri uning transport va savdo yo'llari chorrahasida joylashganidir. Qadimda Buyuk Ipak yo'li aynan shu hudud orqali o'tib, turli sivilizatsiyalar o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlab kelgan. Bugungi kunda ham bu hudud Osiyo va Yevropa o'rtasidagi tranzit yo'llar, temir yo'l va avtomobil magistrallari uchun katta ahamiyatga ega. Mintaqaning tabiiy-geografik sharoiti uning boy foydali qazilmalariga zamin yaratgan. Neft, gaz, rangli va nodir metallar zaxiralari O'rta Osiyoni nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro miqyosda ham muhim iqtisodiy hududga aylantiradi. Ayniqsa, energetika resurslari global bozorlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Geografik o'rin O'rta Osiyoning siyosiy va geosiyosiy mavqeini ham belgilab beradi. Yirik davlatlar manfaatlari kesishgan hududda joylashgani sababli mintaqa xalqaro hamkorlik, xavfsizlik va barqarorlik masalalarida muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, qo'shni davlatlar bilan chegaradosh bo'lishi iqtisodiy integratsiya va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyoning geografik o'rni uning tarixiy taraqqiyoti, tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari hamda mintaqaviy va xalqaro ahamiyatini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Geografik o'rning qulayligi O'rta Osiyoni zamonaviy transport-logistika tizimlarida muhim bo'g'inga aylantirmoqda. Bugungi kunda mintaqa orqali o'tuvchi xalqaro avtomobil va temir yo'l yo'nalishlari, tranzit loyihalar davlatlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, savdo hajmini kengaytirish va mintaqaviy integratsiyani rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa O'rta Osiyoning nafaqat mintaqaviy, balki global iqtisodiy tizimdagi o'rnini ham kuchaytirmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Baratov P., Qodirov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2016.
2. Soliyev A., Tursunov O. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Abdug'aniyev A. Geografiya: O'rta Osiyo va Qozog'iston. — Toshkent: Sharq, 2018.
4. Rahmonov U. O'rta Osiyoning tabiiy resurslari va ulardan foydalanish. — Toshkent: Fan, 2017.
5. To'laganov A. O'rta Osiyo geografiyasi va iqtisodiy rivojlanish masalalari. - Toshkent: Fan, 2015.